

ARUZ VAZNINING O'QITILISHIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK
YONDASHUVLARNING AHAMIYATI

Mustafoyeva Marhabo Rizaqulovna

Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumani Ixtisoslashtirilgan maktab
ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21715460>

Annotatsiya. Mazkur maqolada aruz vaznini ona tili va adabiyot darslarida o'qitishning nazariy hamda amaliy jihatlarini yoritilgan. Aruz vaznining o'ziga xos xususiyatlarini o'quvchilarga tushunarli tarzda yetkazishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanishning samaradorligi tahlil qilingan. Shuningdek, mazkur yondashuvlar orqali o'quvchilarning mumtoz adabiyotga qiziqishi, tahliliy fikrlashi hamda badiiy matnni anglash kompetensiyasini rivojlantirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: aruz vazni, mumtoz adabiyot, interfaol metodlar, bahr, rukn, ritm, badiiy tahlil, kompetensiyaviy yondashuv.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimida adabiyot fanini o'qitishda milliy ma'naviy merosni chuqur o'rganish, o'quvchilarda badiiy tafakkurni rivojlantirish va mumtoz adabiyot namunalarini tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb vazifalardan biridir. Bu borada aruz vaznini o'qitish alohida ahamiyat kasb etadi.

Aruz vazni o'zbek mumtoz she'riyatining asosiy vazn tizimi bo'lib, Alisher Navoiy, Bobur, Ogahiy, Mashrab, Furqat kabi buyuk ijodkorlar asarlarining badiiy mukammalligini anglashda muhim vosita hisoblanadi. Shu sababli aruzni o'qitishda an'anaviy tushuntirish usullari bilan bir qatorda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshiradi.

Asosiy qism. Aruz vazni hijolarning miqdori va sifatiga asoslangan murakkab she'riy tizimdir. Mazkur mavzuni o'quvchilarga o'rgatishda nazariy ma'lumotlar bilan birga amaliy mashqlarni uyg'unlashtirish muhim hisoblanadi.

Dars jarayonida "Klaster", "Aqliy hujum", "Insert", "Venn diagrammasi", "BBB", "Sinkveyn" kabi interfaol metodlardan foydalanish aruzning asosiy tushunchalarini osonroq o'zlashtirishga yordam beradi.

Masalan, "Klaster" metodida aruzning asosiy tushunchalari — hijo, rukn, bahr, zihof, taqte' kabi terminlar o'zaro bog'liq holda tizimlashtiriladi. "Venn diagrammasi" yordamida aruz va barmoq vaznining o'xshash hamda farqli jihatlarini tahlil qilinadi.

Ayniqsa, mumtoz g'azallardan namunalar ustida taqte' qilish mashqlari o'quvchilarning nazariy bilimlarini mustahkamlaydi. Guruhlarda ishlash jarayonida o'quvchilar she'r misralaridagi hijolarni ajratish, ruknlarni aniqlash va bahrni topish orqali mustaqil xulosaga kelishni o'rganadilar.

Aruz vaznini o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Elektron taqdimotlar, audio yozuvlar, videodarslar va interaktiv topshiriqlar o'quvchilarning mavzuni qiziqish bilan o'rganishiga xizmat qiladi.

Aruzni o'qitishda quyidagi afzalliklar kuzatiladi:

- o'quvchilarning mumtoz adabiyotga qiziqishi ortadi;
- badiiy matnni tahlil qilish ko'nikmalari rivojlanadi;
- nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash imkoniyati kengayadi;
- mustaqil va tanqidiy fikrlash shakllanadi;
- estetik did hamda nutq madaniyati rivojlanadi.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, aruz vaznini interfaol metodlar asosida o'qitish o'quvchilarning mavzuni puxta o'zlashtirishiga, mumtoz adabiyot namunalarini chuqurroq anglashiga va she'riy asarlarni ilmiy asosda tahlil qilish kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Natijalar va muhokama. Pedagogik kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, aruz vaznini zamonaviy metodlar asosida o'qitish natijasida o'quvchilarning mavzuga nisbatan qiziqishi ortadi.

Darslarda interfaol topshiriqlar va guruhli ishlash usullaridan foydalanish o'quvchilarning faolligini oshirib, nazariy tushunchalarni amaliy mashqlar orqali mustahkamlash imkonini yaratadi.

Shuningdek, bunday yondashuv o'quvchilarning mumtoz adabiyotga bo'lgan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartiradi. Natijada ular Alisher Navoiy va boshqa mumtoz shoirlar ijodini chuqurroq anglay boshlaydilar, she'riy matnlarning vazni hamda badiiy xususiyatlarini mustaqil tahlil qila oladilar.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, aruz vaznini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanish ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Bunday yondashuv o'quvchilarning nazariy bilimlarini mustahkamlash, badiiy tafakkurini rivojlantirish, mumtoz adabiyotga qiziqishini kuchaytirish hamda tahliliy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois aruz vaznini o'qitishda innovatsion metodlarni keng qo'llash bugungi ta'limning dolzarb vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov B. Aruz ilmi asoslari. – Toshkent: Fan, 2021.
2. Mahmudov N. Ona tili va adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2022.
3. Alisher Navoiy. Mezon ul-avzon. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2018.
4. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
5. O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlari. – Toshkent, 2024.